



ANVAR OBIDJON SHE'RIYATIDA MA'NO KO'CHIMLARI

¹Nosirova Umidaxon Ikromovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

²Mavlonova Mamalakatxon Alijonovna

FarDU magistranti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7936727>

ARTICLE INFO

Received: 06th May 2023

Accepted: 14th May 2023

Online: 15th May 2023

KEY WORDS

Metafora, metanimiya, badiiy asar, she'r, obraz, syujet, asar, tarbiya.

ABSTRACT

Ushbu maqolada o'zbek bolalar she'riyatida Anvar Obidjon ijodida ma'no ko'chish turlarining ifodasi haqida fikr yuritiladi. Hozirgi kunda yoshlarni mustaqil va erkin fikrlay olishlari uchun adiblarning she'rlari, hikoyalari va asarlaridan foydalanish o'z samarasini beradi.

Kirish

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng mamalakatimizda yoshlar ta'lim-tarbiyasiga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Ayniqsa, bu masala siyosat darajasiga ko'tarildi.

O'zbek bolalar shoiri Anvar Obidjon hayot yo'li davomida bolalar uchun qiziqarli she'r, asar va hikoyalar yozgan. O'z ijodi davomida ma'no ko'chish usullaridan ham kerakli foydalana bilgan.

Asosiy qism

Anvar Obidjon ijodida metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi ma'no ko'chish usul va visitalardan keng foydalangan.

Metafora lingvopoetik vosita sifatida ko'chma ma'no asosida yuzaga keladi. Tilimizda narsa-buyum, voqea va hodisalar o'rtasidagi o'zaro o'xshashlikka asoslangan ma'no ko'chishiga metafora deyiladi. Bu lingvopoetik vosita adabiyotshunoslikda istiora deb ham yuritiladi. Antik dunyo mutafakkirlari ham metaforaga o'z munosabatlarini bildirganlar. Masalan, Aristotel ko'chma ma'noda qo'llangan har qanday so'zni metafora deb qaragan va uni umuman troplar bilan tenglashtirib qo'ygan. Kvintilian esa uni hamma birday foydalanaveradigan tabiat ehsoni deydi. Uningcha, metafora nutqqa alohida jilo beradigan, boyitadigan qisqargan o'xshatishdir va tavakkal qilib, dadil qo'llangan metaforalargina nutqqa alohida ko'tarinkilik bag'ishlashi mumkin. Badiiy matnda metaforalar obrazlilikni ta'minlaydi, fikrlarni ixcham tarzda ifodalash imkonini beradi. Metaforaga xos shunday xususiyatlarni biz Anvar Obidjon ijodida uchratamiz. Metafora poetik matnlarda muallif munosabatini ifodalashdan tashqari nutq obyektini ijobiylik yoki salbiylik nuqtayi nazaridan baholaydi.

Quyidagi misolda oshiqning o'z sevgilisiga munosabati metafora vositasida ifodalangan. U sevgilisiga so'zlaganda uning nomini tilga olmaydi, balki uni—gulim ||deb ataydi. Murojaatning bu shaklida muhabbat, hurmat, erkalash semalari sezilib turadi:

Qizg'anchiq deb o'ylama, gulim,

Bu so'z men-chun tengdir o'limga. Inon, juda ochiqdir qo'lim,



Hech narsa yo'q faqat qo'limda.—

Metonimiya–grekcha–*metonymia* so'zidan olingan bo'lib, boshqacha nom berish degan ma'noni bildiradi. Metaforaga o'xshash tropning asosiy turlaridan biri bo'lgan metonimiya ham so'zlarning ko'chma ma'nosiga asoslanadi. Ammo bu yerda, asosan, biror narsa yoki voqea-hodisaning nomi boshqa bir narsa yoki hodisaga ko'chiriladi. Bu predmet yoki voqea-hodisa ongimizda bir-biri bilan aloqador tushunchalarni anglatishi bilan o'zaro bog'langan bo'ladi. Bundan tashqari, metaforada bir-birlariga o'xshash predmet va ularning belgilari ko'chirilsa, metonimiyada bu ikki predmet tashqi ko'rinish yoki ichki xususiyatlari bilan bir-biriga qandaydir aloqasi bo'lsa ham, ammo, umuman, bir-birlaridan farqqiluvchi (bir-biriga o'xshamagan) predmetlar belgilari chog'ishtiriladi.

Metonimiyalar poetik matnlarda turli ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin. Anvar Obidjon ijodida ham metonimiyalar uchraydi. Masalan, quyidagi she'riy parchada qo'llanilgan Afrika so'zi ana shunday metonimik xususiyatga ega:

Zambaraklar hanuz aytmoqda o'lan, Miltiqlar madh etar

Bedavolikni.

Afrika olishar Afrika bilan,

Osiyolik so'yar osiyolikni.

Boshqa lingvopoetik vositalar singari metonimiyalar poetik matnlarda ma'lum bir vazifani bajarishga xoslangan. Ularning eng asosiy xususiyatlaridan biri shuki, poetik matnlarda metonimiyalar bir tomondan she'riy asar tilining o'ziga xosligini ta'minlasa, ikkinchi tomondan muallifga tasvirlanayotgan predmetning o'quvchi uchun muhim hisoblangan tomonini qisqa, tejab ifodalash imkonini beradi.

Quyidagi misolda qo'llanilgan *chehra* so'zi metonimik xarakterda bo'lib, u insonga ishora qilish bilan birga ijobiy munosabatni ham anglatib kelmoqda.

Duch keladi yuzlab chehralar,

Ko'pin qaytib ko'rmoqlik mahol. Ular dilga yaqin naqadar,

Shuning o'zi tuganmas iqbol. Barchinoylar nigohida sir, Alpomishlar ko'zida yashin.

Yoshlik qaytar qalbgga sochib nur, Eslaysan ilk sevgi otashin... Hayotning har lahzasi go'zal, Umrning har dami g'animat.

Hayotning har lahzasi go'zal

Anvar Obidjon ijodida bu kabi metonimiyalarni ko'plab uchratish mumkin.

Anvar Obidjon ijodida lingvopoetik vositalardan hisoblangan sinekdoxalar ham kam miqdorda bo'lsa-da, uchraydi. Sinekdoxa grekcha–*synecdoche* so'zidan olingan. Bu ham tropning bir turi bo'lib, predmetlarga nisbatan qo'llanadigan son bilan bog'langandir, ya'ni predmetlarning son jihatdan birining (qismi, to'la) ma'nosi ikkinchisiga ko'chiriladi. Butun o'rnida qism (yohud, aksincha) yoki birlik o'rnida ko'plik (yoki aksincha) qo'llanilishini ham bunga misol sifatida ko'rsatish mumkin. Anvar Obidjon Quyidagi parchada ishtirok etgan—ko'z leksemasini qo'llash orqali insonni nazarda tutmoqda. Bu o'rinda sinekdoxaning qism orqali butun ifodalangan ko'rinishini qo'llagan.

Ta'mayuqi tuzlardan,

No mehribon ko'zlardan Omon asra meni, charx!

Urilajak do'qlardan||



Sinekdoxaning fikr ifodalashda muhim vosita ekanligi quyidagi parchada ham ko'zga tashlanadi:

Omon qoldi mag'rur bosh, Tanda — chayir jonimiz. Aynimasa bas, do'stim, Kelajakda qonimiz...

Qirg'iz do'stinga||

She'rda qo'llanilgan bosh leksemasi odam ma'nosini anglatmoqda. Bu kabi sinekdoxalar Anvar Obidjon she'riyatida talaygina.—Misollar tahlili sinekdoxaning kata umumlashtiruvchilik imkoniyati borligini ko'rsatadi va unda badiiylik hamma vaqt ham ko'zga tashlanavermaydi. Ko'rinadiki, insoniyat tinimsiz taraqqiyotda bo'lar ekan, hayotda sodir bo'layotgan har bir o'zgarish tilimizda o'z aksini topadi. Shunday ekan, tilimizda yangidan yangi vositalarning paydo bo'lishi tabiiy. Lingvopoetik vositalar badiiy matnlarda obrazlilik, emotsional-ekspressivlik hosil qiluvchi vositalar sifatida o'z imkoniyatlarini namoyon qiladi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Anvar Obidjon she'rlarida qo'llanilgan metanimiya, metafora va sinekdoxalar mavzu mohiyatini ochib berishda, shoir tomonidan tasvirga olingan nutq obyektini ta'riflash va kitobxon tasavvurida muallif istaganday gavdalanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

References:

1. O'zbek bolalar adabiyoti o'quv qo'llanma. Toshkent "Innavotsiyo -Ziyo" 2020-yil.
2. M.Jumaboyev. Bolalar adabiyoti. Darslik.1995 y.
3. Anvar Obidjon. Bahromning hikoyalari.She`r va ertaklar to'plami.-Toshkent."Yosh gvardiya"nashriyoti. 1980. 15-bet
4. H.Olimjon. «O'zbek xalqi adabiyoti», 1948, III).
5. Mahmudov N. Nutq madaniyati va tilning estetik vazifasi. Filologiya masalalari. 2006, №2. 68-bet
6. Mahmudov N.Oxshatishlar – obrazli tafakkur maxsuli Ozbek tili va adabiyoti. 2011, 3-сон
7. Yo'ldashev.M. Badiy matn lingvopoetik tahlili . T. 2007. 35- bet.
8. NOSIROVA, U. I. (2021). EXPRESSION OF PRAGMPOETIC SYMPTOMS IN POETIC TEXTS. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука*,(12), 950-953.
9. Ikromovna, N. U. (2023). SHE'RIY MATNLARDA REFERENSIAL FUNKSIYANING O'RNI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(4), 349-354.
10. Ikromovna, N. U. (2022). PRAGMAPHONETIC CHARACTERISTICS OF POETIC TEXT. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(12), 426-431.
11. Носирова, У. И. (2021). ШЕЪРИЙ МАТНЛАРДА ШАКЛ ВА МАЗМУН УЙЎУНЛИГИ. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 4(2).
12. Zokirov, M. T. (2021). ABOUT THE INTERRELATIONSHIPS OF LINGUISTICS AND PSYCHOLOGY. *Theoretical & Applied Science*, (4), 422-425.
13. Zokirov, M. T., & Zokirova, S. M. (2020). Contrastic analysis at the phonetic level. *Academic Leadership (Online Journal)*, 21(05), 163-169.



14. Zokirov, M. T. (2019). About the general characteristic of bilingualism. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(10), 260.
15. Turdaliyevich, Z. M. (2022). Actual Problems of Bilingualism in a Multi-Ethnic Environment. *International Journal of Culture and Modernity*, 13, 17-23.
16. Mamajonov, A., & Dadabayeva, S. (2022). SUPERSYNTACTIC INTEGRITY WITH THE MEANING OF CONTRAST. *American Journal Of Philological Sciences*, 2(04), 14-20.
17. Porubay, I. F., Zokirov, M. T., & Ibragimova, E. I. (2023). FEATURES OF CONTEMPORARY INTERNET LANGUAGE. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(2), 210-216.
18. Зокиров, М., & Зокирова, С. (2010). ТИЛ ИНТЕРФЕРЕНЦИЯСИНИНГ МОҲИАТИ ҲАҚИДА УМУМИЙ ТУШУНЧА. *Известия ВУЗов (Кыргызстан)*, (6), 10-11.
19. Zokirov, M. (2007). Lingvistik interferensiya va uning o'zbek-tojik bilimimizda namoyon bo'lishi. MDA-Toshkent.
20. Khamrakulova, S. A. B. I. N. A., & Zokirov, M. T. (2022). Phraseological units expressing old age of a human being in the English and Russian languages. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 1(105), 280-283.
21. Zokirov, M. (2023). THE PHENOMENA OF ENANTIOSEMIA IN DIFFERENT PARTS OF SPEECH. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(4), 345-348.
22. Turdaliyevich, Z. M. (2023). TALVASA ASARIDA QO'LLANGAN FONOSTILISTIK VOSITALAR. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(4), 492-495.

Internet materiallari:

23. <https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/anvar-obidjon-sherlarida-poetik-gozallik/>
24. <https://fayllar.org/ozbekiston-respublikasi-xalq-talimi-vazirligi-muqimiy-nomidagi-v6.html>
25. <https://hozir.org/lingvopoetika-psixolingvistika.html>